

ALPOMISH TURKUMIDAGI DOSTONLARDA DIALEKTIZMLAR

Yuldashova Nargiza Abdulla qizi

Termiz davlat universiteti

Lingvistika;o‘zbek tili yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada Alpomish turkumidagi dostonlarda dialektizmlar, Alpomish dostoning dialektizmi, Alpomish turkumidagi dostonlar va ular haqida ma’lumotlar, takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: *dialektizmi, fonetik, Leksik-fonetik, ma’naviy, Laqaylar, zulm-zo‘ravonlik.*

ABSTRACT

In the article, dialectisms in epics of the Alpomish series, dialectism of the Alpomish epic, epics of the Alpomish series and information and suggestions about them are given.

Key words: *dialectics, phonetic, lexical-phonetic, spiritual, lackeys, tyranny-violence.*

KIRISH

“Alpomish”- qadimiy dostonlardan biridir. U qahramonlik, mardlik, vatan’arvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi sevgi va sadoqat, oila mustahkamligini kuylovchi ulkan eposdir. Unda bir oila taqdiri misolida vaziyat taqazosi bilan bo‘linib ketgan qadimiy bir o‘zbek urug‘ining qayta birlashishini badiiy aks ettirish orqali millat birligi g‘oyalari, uning qahramonona shon-shuxrati va istiqboli, el-yurt farovonligi, oila baxti va Vatan ravnaqi uchun kurash baralla kuylangan¹. Shuning uchun ham O‘zbekiston Res‘ublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov dostonga yuqori baho berib, shunday degan edi: “Alpomish”-o‘zbekning o‘zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlaridan avlodlarga o‘tkazib kelayotgan qahramonlik qo‘shig‘idir... “Alpomish” dostoni bizga inson’arvarlik fazilatlaridan saboq beradi.

Doston qo‘ng‘irot urug‘i boshliqlari – aka-uka Boybo‘ri va Boysarining farzandsizligi tasviri bilan boshlanadi. Unda Hakimbek (Alpomish), Barchin, Qaldirg‘ochlarning bir kunda dunyoga kelishlari, go‘daklik chog‘idanoq Barchinning Hakimbekka beshikker qilinishi tasvirlanadi. O‘rtadagi fitna sababli aka-ukalarning o‘rtasiga sovuqchilik tushib, Boysari o‘n ming uyli elat bilan qalmoq eliga ko‘chib ketadi va katta xatoga yo‘l qo‘yadi. Alpomish yorini olib kelish uchun o‘zga

¹ Doniyorov X, Yo‘ldoshev B. Adabiy til va badiiy til. – Toshkent: Fan nashriyoti. 1988.

mamlakatga safar qilar ekan, safar chog'ida Qorajon bilan do'st tutinib, Barchinning sovchilarga qo'ygan shartlarini bajaradi va yorini olib o'z yurtiga qaytadi.

Bo'linganni bo'ri yer, degan gap bejiz aytilmagan. Boysari yovuz qalmoqlar qo'lida qullikka tushib qoladi. Bundan xabar topgan Alpomish amakisini qutqarish uchun qalmoq eliga borib, u yerda yetti yil tutqunlikda qolib ketadi. Bu orada esa Boybo'ri ham fitna sababli qabila boshlig'idan qullikka tushib qoladi. Alpomish zindondan oti Boychibor yordamida qutulib, Qalmoq elida adolatni qaror toptiradi. O'z eliga qaytar ekan, Barchinning zo'ravon Ultontoz bilan bo'layotgan majburiy to'yi ustiga kelib qoladi hamda raqibini yengib, murod-maqсадiga erishadi. Bu voqealarning barchasi dostonida juda qiziqarli, eposga xos rang-barang badiiy bo'yoqlarda tasvirlangan². Alpomish va Qorajon, Qultoy va Yodgorlarning o'zaro munosabatlari, hatto qahramonning oti Boychibor bilan munosabati tasvirida olijanob soddalik, ulug'vor vazminlik, insoniylik, bolalarcha beg'ubor samimiylik g'oyatda go'zal mujassamlashgan. "Alpomish" dostoni badiiy barkamol asardir. U o'zbek xalqining boy madaniniy merosi hisoblangan durdona asaridir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dostonida har bir qahramon o'zlarining go'zal xislarlari bilan bugungi kun yoshlariga namuna bo'la oladi. So'zimizning isboti sifatida Alpomishning otasi Boybo'ri o'g'lining zakot haqidagi gapini eshitganidan so'ng o'z jigarini, ya'ni Boysarini baxilga chiqib qolmasligi uchun shuncha davlati bo'lsa ham zakot sifatida dostonida aytilganidek, atigi bitta "chichqoq uloq" so'ragani, o'zbek ayoli. Qaldig'ochning tili bilan bir alp yigit Alpomishni harakatga keltira olishi juda ajoyib tasvirlangan. Bu haqida adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev "Alpomish talqinlari" asarida shunday deydi: "Qaldig'ochning so'zlari uning yosh bo'lishiga qaramay teran aqli, puxtaligi, "qaynab-pishganligi" notabiiy yoxud tasodifuy emas. Umuman, turning hayotida ayolning aqli hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'zbek ayolining kuch-qudrati bilagi, belida emas, balki boshi ko'zi-yu tilida. O'zbek ayoli – o'jizligi bilan qudratli. U erkak bilan talashub-tortishmaganligi, haqi uchun olishmaganligi tufayli qanoatli ekanligi, erkakka qarshi bormasligi bilan deyarli hamisha etovida tutadi". Qaldig'ochning akasiga aytgan: Aytgan so'zning poyomini bilsang-chi,

Ko'z kuyugi, ey narmoda, o'lsangchi.
Kecha-kunduz Haqqa fig'on etmagan,
Qilichiga qirmizi qon qotmagan,
O'z moliga o'zin vaji o'tmagan.
...Qultoyning do'qidan qaytib kelasan,

² Abdurahmonov G' tahriri ostida. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent:, Fan nashriyoti. 1966. – B.4.

...Sen ham odamman deb qanday yurasan?..

Yuqoridagi gaplari o'zbek or-nomus, mardlik, tantilik kabi asl o'zbekka xos jihatlarni nafaqat yigitlarga, balki, o'zbek qizlariga ham xos ekanligini yana bir bor isbotlaydi va bugungi kun ayol-u qizlariga ham iffat-hayo bilan birgalikda o'zining va o'zgalarning or-nomusini ko'tarib yurganlarini eslatib, sergaklikka, ogohlikka chorlaydi.

Alpomish turkumidagi dostonlar.

«Alpomish» dostonidagi voqealar hayotiyliigi va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi, mardlik, fidoiylilik, samimiyat, to'g'rilik, hamiyatlilik, do'stga sodiqlik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlardan iborat bo'lgan o'zbek milliy ruhiyati yaqqol ko'rinadi.

«Kuntug'mish» dostonida bolalarni mehnatsevarlikka undovchi misralar behisob. Qilichxon laqabli podshoning Kuntug'mish degan yolg'iz o'g'li bo'lib, o'n to'rt yoshga to'lguncha ilm-hunar o'rganadi, kasb-kamolot hosil qiladi. O'n to'rt yoshdan keyin esa qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, ko'pkari chopish kabi sipohilik hunarlarini o'rganadi, har tomonlama komil shahzoda bo'lib yetishadi³.

«Ravshan» dostoni ham e'tiqod yo'lida sobit tura oladigan imonli kishilarni madh etuvchi, ezgulik, mardlik va botirlikni ulug'lovchi, zulm-zo'ravonlik, adolatsizlikni qoralovchi mazmunni o'zida aks ettirgan asardir. Dostoning yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lgan qahramonlari Ravshan va Hasanxon pok qalbi, adolatparvar, hamisha zulmga, nohaqlikka qarshi kurashgan, jabrdiydalarga yordam qo'lini cho'zgan mard kishilardir.

«Malikai ayyor» dostoni ham «Go'ro'g'li» turkumiga kiradigan dostonlardan biri. Dostonda or-nomus, iroda, chidam, topqirlik singari ezgu ma'naviy-axloqiy sifatlar tasvirlanadi.

Alpomish turkumidagi dostonlarda dialektizmlari: Ba'zi dialektal asosning tarkibida bir va undan ortiq tovushning fonetik o'zgarishi natijasida shakllanadi. Leksik-fonetik dialektal so'zlar adabiy tildagi so'zning fonetik hodisalar bilan ifodalanishidir. Quyidagi parchada leksik-fonetik dialektal so'zlarni adabiy tildagi so'zdan farqlanadi: Biylar: "Mazmuni bu odamlar bizning kelganimizdan bexabar qoldi", – deb otini o'zi boylab, ma'raka-maylisga kelib o'tira berdi⁴.

Berilgan parchada majlis so'zining birinchi bo'g'inidagi til oldi, portlovchi, jarangli [j] undoshi til o'rta, sirg'aluvchi, jarangli [y] undoshiga o'zgarishi natijasida maylis leksik-fonetik dialektal so'zni hosil qilgan. Doston matnida dialektal so'zning bu turi ham juda ko'p uchraydi. Bu tabiiy, albatta, negaki dialektal birliklarning

³ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2002.

⁴ Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent:, "Nodirbegim" nashriyoti, 2021. - B.7.

muhim xususiyatlaridan bir ham soʻzning adabiy tildagi holatidan fonetik jihatdan farqlanishidir. Dialektalogiya sohasida oʻrganilgan aksariyat tadqiqotlarda leksikfonetik dialektal soʻzlar eʼtibordan chetda qoldirilgan. Dialektizmning bu turi N.Nazarovning monografik tadqiqot ishida uchraydi.

Qirq kecha-yu qirq kunduz boʻlgandan kay toʻy tarqaydigan kuni boʻldi. Bu gapdagi kay birligi adabiy tilda keyin maʼnosida qoʻllanilgan. Keyin ravish soʻz turkumiga mansub, paytni ifodalaydi. Soʻz tarkibidagi [i], [n] tovushlarning tushishi, birinchi boʻgʻindagi [e] unlisi [a] unlisiga almashgan, bu xususiyatlar leksikfonetik dialektal soʻzga xosligini qayd etish mumkin. Kalma shahodat musurmonning tiliga, Azamat bosh berar dinning yoʻliga. Turarim yoʻq Boysun-Qoʻngʻirot eliga. Birinchi satrdagi kalma birligi ham fonetik hodisaga uchragan. Bunda ikkinchi boʻgʻindagi [i] unlisi tushib qolgan hamda dialektal maʼno hosil qilib, leksik-fonetik dialektal soʻzning namunasiga aylangan. Bu soʻz arabcha boʻlib, jumla, soʻz, qisqa gap maʼnolariga ega. Soʻzdagi fonetik hodisa esa mahalliylikni taʼminlagan, dialektal xususiyat va maʼno kasb etishga sabab boʻlgan. Davlat qoʻnsa bir chibinning boshiga, Semurgʻ qushlar salom berar qoshiga, Parchadagi chibin dialektal birligi –leksik-fonetik dialektizmdir. Bu dialektal soʻz “Alpomish dostonining izohli lugʻati”da ham sharhlangan. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da “Chibin dial. Chivin” dir. Chibin soʻzidagi [v] tovushi [b] tovushiga almashgan, natijada dialektal xususiyat shakllantirgan. Seni koʻrib ichim oʻtday kuyadi, Quvrab ketgan emchaklarim iyadi. Ikkinchi qatordagi quvrab ravishdoshi tarzida kelgan dialektizmning asosi quvra – soʻl, (gullarning soʻlishi) quri maʼnolarini bildiradi. Quri asos tarkibida [v] tovushi ortishi, [i] tovushining [a] tovushga almashishi natijasida leksikfonetik dialektizm turiga aylangan va bu birlik -b ravishdoshi bilan qoʻllanilgan.

Misrada kelayotgan qoboq birligi leksik-fonetik dialektizmning namunasi. Qoboq – koʻz va kiprik oraligʻidagi qism. Bu birlikning adabiy tilda qovoq deb atalishi maʼlum. “Qovoq – koʻz kosasini qoplovchi, ochilib-yopiluvchi teri”⁵. Aksariyat yozma badiiy adabiyotda qaboq tarzda ham ishlatiladi. Nasriddin Nazarov monografiyasida: “Qabaq – 1. Qosh bilan koʻzning orasi, qovoq. Ana sho, badam qabaq qiz jaxti” deya izohlangan. Koʻp aynalib mening koʻnglim boʻlmagin, Meshni soʻrab sen ham ishdan qolmagin. Birinchi qatordagi aynalib ravishdosh koʻrinishidagi dialektizm N.Nazarovning “Laqaylar: baʼzi soʻzlar va iboralarning dialektologik mazmuni” kitobida aynalip-uyriluv juft holatida uchramiz. “Aynalip-uyriluv – mulozamat koʻrsatmoq, erkalamoq. Aynalip-uyrilip qudagʻiylargʻa xizmet qip jiri”. Ikkinchi qatordagi mesh idishi tilga olingan. Xuddi shu kitobda bu soʻz ham uchraydi. “Mesh – suv yoki ayron quyish uchun molning terisidan yoki brezentdan ishlangan

⁵ Z. Maʼrufov. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. – Moskva: 1981. II jild. - B.591.

idish. Meshke suv suv quyip shamlga ilip qo‘ysang, yaxlab turadi”. “Zomin til qomusi”da: “Mesh. 1. Suv, qimiz, ayron, moy saqlash uchun teridan tayyorlangan to‘rvaga o‘xshash idish. Enam har qishta bir mesh sarimoy jo‘natadi”. Men biluvda erta choshka o‘lasan, Yodigorga nega zulm qilasan?! Dastlabki misra tarkibidagi biluv birligi bilishimcha ma’nosida kelyapti. Bil asosiga -uv harakat nomi qo‘shilgan. Adabiy til variantida gap tarkibida bilishimcha so‘zi kirish so‘z sifatida ishlatiladi. N.Nazarovning “Laqaylar: ba’zi so‘zlar va iboralarning dialektologik mazmuni” kitobida choshka dialektizmiga berilgan izoh: “Choshke – ertalab, quyoshning ko‘tarilgan vaqti”. Faqat dostonidagi dialektizmning oxirgi tovushi [a] tovushi, N.Nazarov izohidagi dialektizmida esa [e] tovushi farqli holatda ekanligini ko‘rish mumkin. Yig‘laydi Barchinoy chochini yoyib, Kanizlarman birga turib sarg‘ayib. Adabiy tilda qo‘llaniladigan soch so‘zining ilk tovushi – til oldi, sirg‘aluvchi, jarangsiz [s] undoshining o‘rnida til oldi, qorishiq, jarangsiz [ch] tovushi kelishi bu birlikka dialektal ma’no yuklagan.

Qul ichinda mehribonim sen eding, Sen ham meni unutdingmi, bobojon? Dastlabki qatorda kelayotgan ichinda birligi tarkibida til oldi, portlovchi, jaranli [n] undoshining ortishi natijasida dialektal ma’no kasb etgan. Asarning boshlanish qismidagi quyidagi gaplarga e’tibor qaratish mumkin: Boybo‘ri bilan Boysari – ikkovi katta bo‘ldi. [8] Boysari boy edi, Boybo‘ri shoy edi. Har ikki gap tarkibida ikkovi, shoy so‘zlari leksik-fonetik dialektizmdir. Birinchisida [i] tovushi tushgana bo‘lsa, ikkinchisida bo‘g‘iz [h] undoshi o‘rnini til o‘rta [y] undoshi egallagan.

Biylar shul vaqtda ovdan qaytdi; bu yoqdan shul vaqtda farzandlar yer yuziga tushdi. Gap tarkibidagi shulni ham dialektizm deyish mumkin. Adabiy holatdan farqlanadi. Bunda [l] tovushi qo‘shilgan holatda tarixiy dialektizm deb aytishga asos adabiy tilning shakllanib borib, shu olmoshining yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

Alpomish turkumidagi dostonlarda: So‘zning fonetik tuzilishida bo‘ladigan o‘zgarish; fonetik o‘zgachalik yuz berishi. Mas., sarg‘aymoq so‘zi asli sarg‘armoq bo‘lgan, ya’ni so‘zida fonetik o‘zgarish – r ning y ga aylanishi (o‘zgarishi) yuz bergan.” Fonetik o‘zgarishlar esa dialektal xususiyatdir. Bunday dialektal xususiyatlarni xalq dostonlari matnida ham ko‘rish mumkin⁶.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, milliy eposimiz “Alpomish” matnida uchraydigan dialektizmlarni o‘rganish va tadqiq qilish fonetik hodisalar dialektal so‘z turlarining xususiyatlarini ta’minlovchi omil ekanligini ko‘rsatdi deyish mumkin. Turli fonetik hodisalar ham hududiy-mahalliy xususiyatdir. “Har bir xalq o‘z mahalliy shevalarida muloqat yuritadi, binobarin, xalq o‘z shevasi bilan birga

⁶ Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent: Fan nashriyoti. 1979. – B. 132.

yashaydi va sheva ham xalqning butun borlig'ini, moddiy va ma'naviy dunyosini, his-tuyg'ularini ifoda qiladi..." Xalqning butun borlig'ini, moddiy va ma'naviy dunyosini, his-tuyg'ularini ifodalashda fonetik hodisalar bilan bog'liq leksik-fonetik dialektal so'zlar ham muhim deyish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Abdurahmonov G' tahriri ostida. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent:, Fan nashriyoti. 1966.
2. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent:, "Nodirbegim" nashriyoti, 2021. 170.
3. To'ychiboyev B. "Alpomish" va xalq tili. – Toshkent:, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2001.160 b.
4. Doniyorov X, Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy til. – Toshkent:, Fan nashriyoti. 1988.
5. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent:, Fan nashriyoti. 1979.160 b.
6. Fozil Yo'ldosh o'g'li. "Alpomish" dostoni. – Toshkent:, "SHARQ" nashriyot matbaa aksiyadorlik jamiyati bosh tahririyati. 2010. 400 b.
7. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent:, O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2002.
8. Nazarov N. Laqaylar: ba'zi so'zlar va iboralarning dialektologik mazmuni. – Toshkent:, "Iqtisod -moliya" nashriyoti. 2005.200 b.
9. Ma'rufov Z. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Moskva: 1981. II jild. 632 b.